



LINGVOMADANIYATSHUNOSHLIKDA LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR TIZIMI

Kadirova Maftuna

Lingvistika: o'zbek tili mutaxassisligi bo'yicha
1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18207383>

ARTICLE INFO

Received: 31st December 2025

Accepted: 1st January 2026

Published: 9th January 2026

KEYWORDS

Lingvokulturologiya,
frazologizm, paremiyalar, ramz,
realiya, lakuna, metofara,
stereotip, etalon.

ABSTRACT

Ushbu maqolada lingvokulturologiya fani, unga hissa qo'shgan olimlar haqida ma'lumot beriladi. Lingvokulturologik birliklarning tilni o'rganishdagi o'ziga xos jihatlari haqida so'z boradi. Ushbu birliklarga alohida to'xtalib, misollar keltirilib izohlanadi. Lingvokulturologik birliklar qoraqalpoq va rus madaniyati bilan taqqoslaniladi. Asosan, lingvokulturologik birliklardan namunalar keltiriladi.

Kirish

Lingvokulturologiya bu tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari kesishmasida vujudga kelgan fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi va shu bog'liqlikning shakllanishini o'rganadigan sohadir. "Lingvokulturologiya" atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N.Teliya va V.V.Vorobyov, V.A.Maslova kabilarning ishlarida ko'rindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida so'z borganda, deyarli ko'pchilik tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlashadi. Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, X.Glins, X.Xols, F.Boas, D.U.Pauell, E.Sepir, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi.

Asosiy qism

Lingvokulturologiya fanining asosiy obyekti bu lingvokulturologik birliklardir. Lingvokulturologik birliklar bu milliy va madaniy mazmunga ega bo'lgan til birliklari bo'lib, ular xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, urf-odatlar va an'analarini o'zida aks ettiradi. Lingvomadaniy birliklarga frazeologizmlar, paremiyalar, ramzlar, realiyalar, lakunalar, metafora, stereotip, e'talon va boshqalar kiradi.

Lingvomadaniyatshunoslikda paremiya deganda, avvalo, maqol, matal va hikmatli so'zlar tushuniladi. Maqollar xalqning pand-nasihati, ma'naviy -axloqiy xulosasi, xalq milliy ruhiyatining aks -sadosi, til tabiatining hikmatli mezonidir. [1]. Matal -tugal ma'no ifodalaydigan obrazli ibora, hikmatli so'z. Maqol va matal dastlabki qarashda bir xildek tasavvur uyg'otadi. Ularning umumiy o'xshash jihatlari shuki, ikkisi ham fikrni obrazli, nutqni mazmunder qilish uchun yordam beradi. Biroq maqollar tugal fikrga ega, matallarda tugallik mavjud emas, ularda fikr oxirigacha bayon etilmaydi, balki unga ishora qilish bilan chegaralanadi. Hikmatli so'zlar bu buyuk shaxslarning donishmandona fikrlaridir, ular odatda pand- nasihat

mazmunida bo'lib insonni yaxshilikka chorlaydi.

Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin. (Maqol)

Qizil qor yog'anda (Matal)

Oz-oz o'rganib dono bo'lur,

Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur (A.Navoiy) - hikmatli so'z.

Lingvomadaniyatshunoslikda ramz(simvol) ning belgilik jihati muhim ahamiyatga ega.Ramz- ko'chim, belgilarining o'ziga xos turi.U insonga olamni anglashga soddalashtirish,voqelikni obrazli tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi.Ramz- moddiy narsalar va jarayonlarning belgi yoki obraz shaklida ifodalangan ideal mazmunidir.[2]

Momaqaldiraq - tangrilar ovozi.

Yashin- tangrining o'qi.

Sel- yovuz ruhning ofati.

Suv,Tuproq- tiriklik.

G'or- ruhlar makoni.

Osmon- ezgulik tangrilar.

Yer osti- yovuz ruhlar makonining ramzlari.Demak, ramzlar qadriyatlar majmui sanaladi.Ularda muayyan davrda yashagan ajdodlarimizning hayot kechinmalari, urf-odatlar,tasavvurotlari jamlangan.Ularni to'g'ri talqin etish o'tmishdagi ota-bobolarimizning ichki hissiyotlarini , dunyoqarashini haqqoniy ravishda yoritib berish uchun xizmat qiladi.

Realiya- yunoncha "realiya-"so'zidan olingan bo'lib,"ashyoviy , haqiqiy" degan ma'noni anglatadi.Realialar muayyan bir xalqning hayoti,turmushi, urf-odatlar, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotga oid narsa, predmet,voqea-hodisalarni ifodalovchi so'z va so'z birikmalari bo'lib,ular milliy va davriy xususiyatlarga ega.Umuman, realiya tillarni qiyoslash jarayonida aniq ko'zga tashlanadigan hodisadir.Masalan, o'zbek va qoraqalpoq madaniyatdagi liboslar bir - biridan farqli jihatlarini quyida ko'rishimiz mumkin.

Qoraqalpoq xalqidagi jegde,kiymeshek,sawkele,malaqay,shogurme,shekpenlari o'zbek madaniyatida uchramaydi.Shuningdek, o'zbek millatiga xos beqasam,alocha, atlas,adras kabi mato turlari;munisak,kaltacha,loki,kultapo'shak singari liboslar qoraqalpoq xalqi madaniyatiga xos bo'lmagan kiyimlar sirasiga kiradi Yana bir lingvokulturologik birliklardan biri lakunalaridir.Lakuna bu lotincha "bo'shliq,bo'sh joy" ma'nolarini anglatadi.U biron xalqning maishiy,madaniy, ijtimoiy, tarixiy, hayoti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo'lgan, boshqa tilda muqobili bo'lmagan so'z va so'z birikmalari hisoblanadi.[3]

Masalan,o'zbek va rus xalqlari misolida andisha so'zini olsak.Andisha o'zbek millatiga xos bo'lgan tushuncha hisoblanadi.U sharm- hayolik ,or- nomus, ehtiyotkorlik , hurmat hissi kabi ma'nolarni anglatadi va ko'pincha hayo,odob kabi fazilatlarni ifodalaydi.Bunday tushunchalar rus xalqida bo'lishi mumkin,ammo andisha so'zi o'zi uchramaydi.Demak,bu yerda lakuna hodisasi yuz beryapti. Metafora ham lingvokulturologik birliklardan biri hisoblanadi.Metofarada biror predmet nomi boshqasiga o'xshashligiga binoan ma'no ko'chadi.Metofara tildagi universal hodisa bo'lib,bu jihat makon va zamonda,til qurilishida va uning vazifaviy ko'rinishlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Stereotip termini yunoncha stereos "qattiq",typos- "iz,tamg'a" degan ma'noni anglatadi.Stereotip- muayyan guruh yoki jamoaning soddalashtirish, sxemalashgan, emotsional bo'yoqdor va favqulodda barqaror bo'lgan obrazi, turli madaniyat vakillari tili va tafakkurining o'ziga xosligidir.Stereotipik xarakter- xalqning tasavvurida milliy madaniyatning targ'ibotchisi bo'lgan shaxs, uning vatanparvarlik,to'g'riso'zlik,halollik kabi jihatlariga taqlid , o'zlashtirish yoki hurmat munosabatda bo'lish ,uni ibrat namunasi sifatida ko'rsatishdir.U har qanday vaziyatda ham milliy - madaniyatni ifodalovchi lingvokulturologik birlik hisoblanadi.Madaniyatlararo muloqotda o'zbeklar mehmondo'stligi, ruslar tavakkalchiligi, qozoqlar qaysarligi, turklar hissiyotlilik,Xitoyliklar sertakallufigi,yaponlar xushmuomalaligi, italyanlar qiziqqonligi, inglizlar sovuqqonligi, nemislar tartibga aniq rioya qilishi bilan butun xalq haqidagi stereotip tasavvurlarni yuzaga chiqargan.

Lingvomadaniyatshunoslikda etalon — bu ma'lum bir xalq madaniyatida eng namunali, ideal deb qabul qilingan obraz, belgi yoki tushuncha bo'lib, u til birliklari orqali mustahkamlangan bo'ladi.Masalan, o'zbek xalqida

Ona — mehr va fidoyilik etaloni

Non — muqaddaslik va baraka etaloni.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, til o'rganishda lingvokulturologik birliklarning o'rne beqiyos hisoblanadi. Ushbu lingvomadaniy birliklarni o'rganmasdan ma'lum bir til yoki asar haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish qiyindir. Ular har bir xalqning madaniyatiga xos bo'lgan bezagini va xususiyatlarini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kazakov I. O'zbek va qoraqalpoq tillarida lingvokulturologik birliklar talqini (Monografiya) Toshkent - 2025.

2. Maxmaraimova Sh. Lingvokulturologiya (O'quv qo'llanma) Toshkent - 2017

3. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya (Darslik) Toshkent - 2019.

